



**GLOBALASHAYOTGAN ZAMONDA AGRESSEVLIK  
KO'RINISHLARINI PSIXOLOGIK O'RGANISH**

*TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Amaliy psixologiya yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Bozorova Ro'zigul Xurramovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ayni globallashib borayotgan davrda bolalar va yoshlarda uchraydigan agressivlik holatlari atroflicha o'rganiladi. Shuningdek, ularda bunday holatlarning kelib chiqishi va sabablari haqida ham mulohaza yuritiladi. Agressivlikning oldini olish hamda uni bartaraf etish bo'yicha chora va tadbirlar bayon etiladi va o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Agressivlik, depressiya, qobiliyat, egoizm, tafakkur, iroda, idrok, sezgi, muvozanat, shezofreniya, alturizm, affect, individuallik, abulya, deskeniziya, gipobuliya, motevatsiya, temperament.*

**Annotatsion:** *In this article, the cases of aggressiveness in children and young people are studied in detail in the era of globalization. They also discuss the origins and causes of such situations. Measures and measures for the prevention of aggression and its elimination are described and studied.*

**Key words:** *Aggression, depression, ability, egoism, thinking, will, perception, intuition, balance, schizophrenia, altruism, affect, individuality, abulia, dyskenasia, hypobulia, motivation, temperament.*

**Аннотация:** *В данной статье подробно изучаются случаи агрессивности у детей и молодежи в эпоху глобализации. Они также обсуждают происхождение и причины и изучены таких ситуаций. Описаны и изучены меры по предотвращению и устранению агрессии.*

**Ключевые слова:** *Агрессия, депрессия, способности, эгоизм, мышление, воля, восприятие, интуиция,, баланс, шизофрения, альтруизм, аффект, индивидуальность, абулия, дискиназия, гипобулия, мотивация, темперамент.*

Bugungi kunda juda ko'payib ulgurgan holatlardan biri agressiv holatidir, Nega bunday asabiy, agressiv insonlar ko'payib ketmoqda, bunga sabab nima? degan savol tug'iladi. Axir, zamonamiz tinch va osuda bo'lsa. Bundan 50-60 yil ilgari odamlar hozirgi kundagiga nisbatan juda qiyinchilikda yashagan. Biroq, insonlar agressivlik holatlari ko'p uchramagan.

Ularda agressivlik holati deyarli ko'p kuzatilmagan. Hozirgi paytda hayot turmush tarzi ancha yengillashgan bo'lsa-da, agressiv insonlar anchagina uchrab



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

turibdi. Bunday holatlar nafaqat kattalar, balki yosh bolalar o'rtasida ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu holatga kim va nima aybdor deyishimiz mumkin. Mening fikrimcha, agresivlikka muhit aybdordir, chunki atrof-muhit insonlarga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Tevarak atrofdagi har xil voqea hodisalar, oiladagi kelishmovchiliklar va hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan internet olami ham shular jumlasidan. Ushbu turli ko'rinishlar insoniyatga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Birinchi tevarak atrofni oladigan bo'lsak, ya'ni tashqi muhitni. Undagi har bir hodisalar o'z ta'siriga ega. Hozirgi kunda manmanlik, firibgarlik, xiyonat, qarzdorlik, kredit yopolmaslik, mansabparastlik kabilar juda ko'p uchramoqdaki, bular kelishmovchiliklar, ajralishlar ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu salbiy holatlar inson ongiga ta'sir etmay qolmaydi. Biz

yuqorida salbiy asoratlarning bir muncha yengilrog'ini sanab o'tdik, xolos. Afsuski bundan ham dahshatli holatlar uchraydi, ularni aytishga unamadim. Chunki, bu hech kimga sir bo'lmasa kerak. Inson u qadar aqlini yo'qotish darajasini shaxsan o'zim tasavvur qilolmayman. Shuni aytish kerakki, jamiyatda agresivlik holati tufayli yomon yo'lga kirib qolganlarni uch toifa insonlarga ajratish mumkin.

Birinchisi, oilasida umuman tinchlik bo'lmagan, faqat kelishmovchiliklar, ruhan ezilishlar, ya'ni nosog'lom oila. Katta bo'lib, ruhiy zo'riqish va jabr ko'rgan insonlar agresiv bo'lishi mumkin. Ikkinchisi tashqi muhit olamida inson ishonchiga kirib, uni hayotini barbod qilayotgan holatlardir. Shunday insonlar borki, ularni inson deb atash qiyin, chunki sodda insonlar ongini buzib ularni noto'g'ri yo'lga boshlashi yoki har xil yo'llar bilan insonlarni bir umrlik ishonchlarini tortib olishi holatlarini keltirish mumkin. Bir umr insonlar hech kimga ishonmasdan afsuslangan holatda yashab qoladi. Bunday insonlar xato qilishdan qo'rqadi va yashishdan nisbatan ko'ngli qoladi. Ularning ongini agresiv holatlar qamrab oladi. Uchinchisi esa, to'qlikka sho'hlikdir. Chunki, uning puli ko'p, faqat kayfi-safo qilish uning muammosi sanaladi. Kerakli vaqtdan unumli foydalanishdan ko'ra vaqtini bemalol, behuda narsalarga sarflash bunday insonlar uchun tabiiy hol hisoblanadi. Ushbu ko'rinishdagi insonlar o'ziga anchagina bino qo'ygan, mansabparast kishilar bo'lishadi, shuningdek, oddiy insonlarga mensimasdan qarashadi. Bu

uch toifadagi fikrlar ba'zi qo'shtirnoq ichidagi insonlarga qaratilgan. Ular vaqtlari, imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olmaslik oqibatida agresiviyaga uchrashadi. Ba'zida xiyonat, giyohvandlik, ichkilikka berilib o'z-o'zini jaholat botqog'iga otishadi, natijada sog'ligidan ayrilishadi hamda bor yo'g'idan ayrilib, agresivlik, ruhiy tushkunlik, yolg'izlik dunyosida yashashadi. Bu holatga vaqtida to'g'ri yo'ldan adashishi sababdir. Bu uch holatda ham inson agresivlikni boshdan kechiradi. Afsuslanish, ruhan ezilish, nadomat, ruhan zo'riqish, ishonchsizlik,



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

yolg'izlik, oiladagi kelishmovchilik, oiladagi nohaqliklar barchasi agressiv insonni keltirib chiqaradi. Bu esa, yana atrofdagilarni ham chetlab o'tmaydi. Ular birbirlariga va atrofdagi insonlarga agressiv nazarda qarashadi, ularga ishonishmaydi, mehr kutishmaydi, mehr ham berishmaydi. Agressivlik holatlarni kamaytirish uchun kattami yoki bolalarini barcha insonlarning bo'sh vaqtini kamaytirish, ularni iloji boricha ish bilan ta'minlash, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish imkoniyatlarini yanada ko'paytirish lozim. Oiladagi muammolarni o'rganish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kerak. Bu yo'lda ko'proq izlanishlar olib borilishi va amalda ko'rsatilishi eng muhim sanaladi. Bundan tashqari noto'g'ri foydalanish oqibatida inson ongini buzayotgan internet olami ham agressivlikning shakllanishi uchun tayyor sharoit hisoblanadi. Ota-onalar o'zlarining muammolari deb ba'zida o'z bolalariga ham vaqt ajratolmay qolishadi, bunday e'tiborsizlik ham agressivlik holatining oldini olinmasligiga sabab bo'lmoqda. Ba'zida ota onalarning o'z muammolari sabab bolasining nima ishlar bilan bandligini bilishmaydi. Bolalariga o'zlariga ishongandek ishonishadimi yoki bolalari kelajagiga befarqmi, yoki bo'lmasa, bolalaridan ham muhim ishlari bormi. Shu kabi savollar juda ko'p uchraydi, chunki bolalar kattalarga nisbatan juda ham qiziquvchan bo'lishadi.

Ularni maktabda yo'lda, uyda nima bilan ko'proq bandligini bilish har qanday yo'llardan saqlaydi. Eng avvalo, ongini toza tutishi uchun internet botqog'iga kirishligining oldini olish uchun vaqtida diqqat e'tiborni kuchaytirish shart. Ularga kun tartibini belgilab berish, ko'proq kitob o'qish, biror tugarak mashg'ulotlari bilan band qilish ular ongini noo'rin xayollar va zararlanishlardan asraydi, bu esa ota-onadan ko'proq vaqt ajratish va e'tibor talab qiladi. Bola noto'g'ri yo'lga kirib qolmasligi uchun ularni bo'sh vaqtini umuman qoldirmaslik kerak. Ayniqsa, bugungi kunda. Bu borada ularni qiziqishlarini o'rganib o'zi xohlagan yo'nalishi bo'yicha sharoit yaratilsa, maqsadga ayni muvofiqdir. Chunki, ular qiziqqan mashg'ulotlaridan hech qachon zerikishmaydi, balki rivojlanib boradi. Ularni qo'llab-quvvatlash ota-ona va ustozining burchidir. Jamiyatda biror kasb-hunar bilan band bo'lgan insondan esa, yomon odamlar hech qachon chiqmaydi, chunki ularning ortiqcha bo'sh vaqtlari ham, yomon niyatlari ham bo'lmaydi. Ba'zida ota-ona bolalarining qanday kayfiyatda ekanligini bilishmaydi.

Bolalar ko'pincha agressiv holatda uzoq yurishadi. Bu esa, ular uchun xavfli bo'lishi mumkin. Negaki, ularda stress, depressiya, egoizm holatlarining rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Bolalarga e'tibor bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Shu o'rinda, bu muammolarning ich-ichiga agressivlik holati ham kirib ketadi, chunki bu holat insonning ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan holda kimlar uchundir xavfli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga,



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

insonlardagi har bir jarayon avvalo, ulardagi xulq-atvor bilan ham kechadi. Shuning uchun, ularga turli odob-axloq me'yorlarini o'rgata olish zarur. Agressivlik holatida tafakkur, ong o'z natijasini bermaydi. Shuning uchun, ularda ko'pincha har xil tushunuvchiliklar kelib chiqadi. Sotsiologik jihatdan olib qaralganda bu holat ko'pincha bolalarga nisbatan ota-ona yoki yaqinlarining e'tiborsizligi yoki ortiqcha e'tiborlari orqali kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin. Shu tariqa, insonlardagi bunday holatning shakllanishiga oson yo'l qo'yib beriladi. Agar bolalaringizni kelajakda yetuk inson bo'lishini xohlasangiz ulardagi agressivlik holatini sezdingizmi ular bilan darhol shug'ullaning, agar ularda bu holat mavjud bo'lmasa juda ham yaxshi, siz ular bilan yaxshi shug'ullanmoqdasiz va shu holatda davom etishingiz muhim. Bolalar go'yoki, bir novda misolidir, ularni bolaligida qay tomonga yo'naltirsangiz ular o'sha tomonga qarab o'sadi va umrining oxirigacha o'sha tomonni egallaydi. Shunday ekan, siz hozirdan bolalaringizga e'tiborni kuchaytirishingiz lozim. Ularning noto'g'ri harakatlarini nazorat qilib to'g'ri yo'lga solishingiz eng muhim sanaladi. Zero, ulardagi salbiy oqibatlarining oldini olishga hammamiz birdek mas'ulmiz. Buning uchun, oila, mahalla, ta'lim tizimi, shahar, tuman barchasi mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bek Xamdam, Muvozanat - Toshkent sharq 2007
2. O.Sodiqova, S..Madaliyeva - Psixologiya Toshkent 2010
3. E.E.G'oziyev - Ontogenez psixologiyasi, Nazariy Ekspremental tahlili, Toshkent Monografiya 2010
4. M.Abdurahmonova, Ruhiiy dunyo tasviri - O'zbekiston nashriyoti - Toshkent 1995
5. Ismoilovna A.Z, 2023, O'smirlarda agressiv xulq-atvor, Germany Modern scientific research achievements, innavations and development prospects.
6. Dilova N.F. 2017 O'quvchi shaxsini rivojlantirishda xamkorlik pedagogikasining o'rni, Zamonaviy ta'lim1-son.
7. G.X.Sharafuddinova - umumiy psixologiya, Toshkent 2022